



Yoshlarni ma'naviyatini shakllatirishda jamiyatning roli

Berkinov Oybek Toxir o'g'li

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti o'qituvchisi

oybekberkinov98@gmail.com

Ismatov Ravshan Ixtiyor o'g'li

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti

2-bosqich talabasi

ravshanismatov98@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada ma'naviyat tushunchasi bugungi davrda amalga oshirilayotgan islohotlarimizning samaradorligi avvalo xalq ma'naviyatining tiklanishi an'analarimizning saqlanishi, bu esa madaniyat va ta'lim rivoji bilan uzviy bog'liq. Bugun biz tarixiy bir davrda xalqimiz o'z oldiga ezgu va ulug' maqsadlar qo'yib, tinch osoyishta hayot kechirayotgan avvalombor o'z kuch va imkoniyatlariga tayanib, demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurish yo'lida ulkan natijalarni qo'lga kiritadigan bir davrda yashamoqdamiz. Biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo'lmasdan, yoshlarimiz esa o'z kuch-qudratlariga ishonib, yaratilgan imkoniyatlardan foydalangan holda yashayotgan ekan bu borada ma'naviy tarbiya masalasi, hech shubhasiz beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: ma'naviyat, milliy g'oya, mafkura, taraqqiyot, ong, islohot, g'oya, jamiyat, yangilanish, mezon, xalq, faravon kelajak, qashshoq, kuch-qudrat, mustaqillik, inson, tuyg'u, tushuncha.

Abstract: The concept of spirituality in the article is that the effectiveness of our current reforms is first of all the revival of the people's spirituality, the preservation of our



traditions, which is inextricably linked with the development of culture and education. Today, we are living in a historical period in which our people set themselves noble and great goals, live a peaceful life, rely primarily on their own strength and capabilities, and achieve great results in the way of building a democratic state and civil society. . As long as our people are not inferior to anyone else in the world, and our youth believe in their own strength and use the opportunities created, the issue of spiritual education in this regard is undoubtedly of incomparable importance.

Keywords: spirituality, national idea, ideology, development, consciousness, reform, idea, society, renewal, standard, people, prosperous future, poor, power, independence, human, feeling, concept.

Аннотация: Концепция духовности в статье заключается в том, что эффективность наших нынешних реформ – это, прежде всего, возрождение духовности народа, сохранение наших традиций, что неразрывно связано с развитием культуры и образования. Сегодня мы живем в исторический период, когда наш народ ставит перед собой благородные и великие цели, живет мирной жизнью, рассчитывает прежде всего на свои силы и возможности, достигает больших результатов на пути построения демократического государства и гражданского общества. . Пока наш народ не уступает никому в мире, а наша молодежь верит в свои силы и использует созданные возможности, вопрос духовного воспитания в этом плане, несомненно, имеет ни с чем не сравнимое значение.

Ключевые слова: духовность, национальная идея, идеология, развитие, сознание, реформа, идея, общество, обновление, стандарт, народ, благополучное будущее, бедность, власть, независимость, человек, чувство, концепция.

**Ma`naviyat** - nur, ma`naviyatli shaxs dilida haqiqat nuri aks etgan o`zligini anglagan, o`zining borliqdagi o`rni va vazifasini tushunib yetgan, haqiqat oldidagi o`z maqomiga loyiq



bo'lish va burchini ijro etish ma'suliyatini zimmasiga ola biladigan inson. Millat ma'naviyati, o'z tarixiy shakllangan qiyofasiga ega, shu bilan birga mohiyatan umumbashariy qadriyatlarga aslo zid emas, balki muvofiqdir.

Ma'naviyat - shaxsning ruhiy hayot tajribasi, ruhiy olamini, dunyoqarashini, aqliy salohiyatini o'zida mujassamlashtiradi. U shaxsning va millatning o'zligini anglashi, milliy g'urur, milliy iftihor, vatanparvarlik, davlatga hurmat, jamoa an'alariga xayrixohlik, diyonat, mehr-shafqat, poklik, halollik, vijdonlilik, rostgo'ylik, adolatparvarlik, kamtarinlik kabilarni o'z ichiga oladi. Ma'naviyat yo'li - bosqichma-bosqich o'tiladigan yo'l. Inson aqlini tanigandan boshlab, tafakkur, axloq va ma'rifatda kamolotga intiladi. Jamiyat ma'naviyati, uning rivoji ham uzoq davom etgan tarixiy taraqqiyotning natijasi hisoblanadi. Jamiyat asta-sekin rivojlanib borgan sari inson ma'naviyati ham tarkibiy jihatdan mukammallashib borgan. Ma'naviyatning eng qadimgi asoslarini axloqiy, diniy va badiiy qarashlar tashkil qiladi. Davlatning yuzaga kelishi bilan ma'naviyatning siyosiy, falsafiy va ilmiy shakllari yuzaga kelgan

Ma'rifat - kishilarning ongini, bilimini, madaniyatini oshirishga qaratilgan ta'lim-tarbiya. U tabiat, jamiyat va inson mohiyati haqidagi turli bilimlar, ma'lumotlar majmuasini ham bildiradi. Ma'rifat. ilmu urfon ma'nosida ham ishlatiladi. Ma'rifat tushunchasi madaniyat, ma'naviyat tushunchalari bilan bog'liq. Mustaqil O'zbekiston ham jahonning eng ma'rifatli mamlakatlari orasida o'z o'rnini topib, barqaror rivojlanish uchun mustaqillik dunyoqarashiga ega bo'lgan, milliy iftixor tuyg'usi bilan yo'grilgan, ammo millatchilik va milliy mahdudlikdan holi, hur va erkin fikrlovchi, ayni vaqtda fuqarolik mas'uliyatini to'g'ri tushunadigan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o'z kasbkori, ijtimoiy muhiti talab qiladigan darajada o'zlashtirgan shaxsni tarbiyalashi lozim. Buning uchun jamiyatla ikki yo'nalishda ish olib boriladi. Birinchidan, shaxs kamoloti uchun obyektiv shart-sharoitlar yaratiladi. Bu haqida Islom Karimov shunday degan edi: "Amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi har bir fuqaroning shaxs sifatida shakllanishi uchun, o'z qobiliyatini, o'z talantini ishga solib hayotini yanada yaxshilashi, ma'nan boyitishi uchun barcha imkoniyatni yaratib berishdan iboratdir". Demak, eng avvalo, iqtisodiy va madaniy



imkoniyatlar, moddiy va ma'naviy ishlab chiqarish kengaytiriladi hamda ijtimoiy munosabatlar takomillashtiriladi:

-tegishli qonunlar qabul qilinadi, eski ijtimoiy muassasalar qayta ko'rib chiqiladi, zaruratga qarab yangilari tashkil etiladi

Ikkinchidan, muayyan tarbiyaviy ishlar amalga oshiriladi.

Agar biz bu masalada xushyorlik va sezgirligimizni qat'iyat va mas'uliyatimizni yo'qotsak, bu o'ta muhim ishni o'z holiga tashlab qo'yadigan bo'lsak muqaddas qadriyatlarimizga yo'g'rilgan va ulardan oziqlangan ma'naviyatimizdan, tarixiy xotiramizdan ayrilib, oxir-oqibatda intilgan umumbashariy taraqqiyot yo'lidan chetga chiqib qolishimiz mumkin. Biz odatda ma'naviyat haqida, uning ma'no-mazmuni, hayotimizdagi o'rni va ahamiyati haqida ko'p gapiramiz. lekin negadir aksariyat hollarda ko'pchilik manaviyat o'zi nima, degan savollarga aniq va lo'nda javob berishga qiynaladilar. Albatta, „Manaviyat” tushunchasini ilmiy, falsafiy, adabiy yoki oddiy tilda ifodalanadigan ko'plab tariflarni keltirib o'tishimiz mumkin. Aytishimiz mumkinki, o'zida juda chuqur va keng qamrovli mano-mazmunni mujassam etgan bu tushunchaga har qaysi ma'rifatli inson o'zini qarashi, ong-u tafakkuridan kelib chiqqan holda turlicha ta'rif va tavsiflar orqali o'z fikrlarini namoyon etadi. Keyingi yillarda shiddat bilan rivojlanayotgan zamonda bu mavzuda olimlarimiz tomonidan tayyorlanayotgan ilmiy risolalar, o'quv qo'llanmalar, lug'atlar, „Manaviyat” tushunchasi va uning asosiy taomillariga har kim o'zining fikrlashidan kelib chiqqan holda tarif bermoqda. Bu boradagi fikrlarni inkor etmagan holda, „ma'naviyat” tushunchasining mazmunini faqatgina „mani”, „mano” degan so'zlar doirasida chegaralanib qolmaydi. Negaki, insonni inson qiladigan, uning ongi va ruhiyati bilan chambarchast bog'langan bu tushuncha har qaysi inson, jamiyat, millat hayotida hech narsa bilan o'lchab bo'lmaydigan alohida o'ringa ega. Fikrimizni davom ettirar ekanmiz Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning quyidagi so'zlarini keltirib o'tish joiz: „Ma'naviyat- insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, imon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir”. Bu so'zlar bugun haqiqiy o'zbek bilimdonlarining oltin shioriga



aylangan desam adashmagan bo‘laman. Uning muhim xususiyati shundaki, u insonning ichki dunyosi va qiziqishi, rivojlanish darajasini ko‘rsatib beruvchi ko‘zgu vazifasini bajarishidir. Darhaqiqat, istiqloq va ma‘naviyat bir-biridan ayro emas, aksincha o‘zaro bog‘liq tushunchalardir. Insoniyat o‘tmishi shundan guvohlik beradiki, ma‘naviyati butun millatni, xalqni abadiy istibdoddan saqlash aslo mumkin emas. Buyuk hind shoiri R.Tagor ma‘naviyat tushunchasini o‘z davridayoq teran anglagan holda shunday degan edi. “Ilmiy, ijtimoiy va iqtisodiy islohotlar tabiatdagi narsalarni yaxshilashi, sayqallashi mumkin. Ammo hech bir narsa ma‘naviyatchalik kishi ruhiy kamolotiga erishishi uchun yo‘l ko‘rsatib bera olmaydi”. Haqiqatdan ham, davr bu qarashlarning nechog‘lik hayotiy ekanligini yana bir bor tasdiqladi. Shuni ko‘tarinki ruh bilan aytishim mumkinki, keyingi yillarda jamiyatdagi iqtisodiy- ijtimoiy, siyosiy muammolarni hal etishda ma‘naviy jarayonning muhim o‘rnini asoslovchi teran g‘oyali maqola, ilmiy-ommabop asarlar yuzaga keldi. O‘quvchilarda sog‘lom munosabatni shakllantirish. Unga ko‘ra, o‘quvchilarning inson, tabiat va jamiyatga nisbatan sog‘lom munosabati shakllantirilishi kerak. Sog‘lom munosabat o‘quvchilarning o‘zaro muomalasi, o‘zgalarga munosabati va axloq-odobi majmuidan iborat. O‘quvchilar tarbiya darajasi turli xil bo‘lgan oilalarning vakilidir, tabiiyki, bu hol ularning munosabat immunitetiga ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli o‘quvchilarining sog‘lom munosabat ko‘nikmasini shakllantirish asosiy vazifalardan biridir. Ayniqsa, 2-sinfdan boshlab o‘quvchilarning munosabat ko‘nikmasida o‘zgarishlar boshlanishini hisobga olish lozim. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining sog‘lom munosabatini shakllantirishda ularni faollashtirishga e’tibor berish samarali hisoblanadi. O‘quvchilar dars mashg‘ulotlari va tarbiyaviy tadbirlarda faol bo‘lishlari kerak, bunda o‘qituvchi yoki murabbiy yo‘naltiruvchi vazifasini bajaradi. Shuni ta’kidlab o‘tish joizki, bugungi kunda yoshlar ma‘naviyati har qachongidan ham dolzarb masalalardan biridir. Bu masala tarbiyaviy jarayonning markaziy vazifalaridan biri ekan, yoshlarning axloqi, xulq-atvori, ma‘naviyati uchun mas’ul shaxslarning majburiyatlarini yanada teran anglagan holda o‘z vazifalariga yondashishi lozimligini ko‘rsatib turibdi. Fikrimiz yakunida tarbiyaviy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi shaxslarga tavsiyalar ishlab chiqqanmiz. Jumladan, o‘qituvchilarga:



- O'quvchilarning o'z maqsadlarini teran anglagan holda faoliyat yuritishlarini ta'minlash;
- O'quvchilarni ma'naviyatini yuksaltiruvchi turli xil davra suhbatlari, uchrashuvlar tashkil qilish;
- Buyuk ajdodlarimizning jahon sivilizatziyasiga ta'sir ko'rsatgan asarlari bilan tanishtirish rejasini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- O'quvchilarning sinfdan va maktabdan tashqari bo'sh vaqtlarini unumli tashkil etish maqsadida turli xil ko'rik-tanlovlar, musobaqalar tashkil etish hamda o'quvchilarning faol ishtirok etishlarini ta'minlashlari zarur. Ota-onalarga:
- O'z farzandlarining tarbiyasiga mas'uliyat bilan yondashishlari; - Maktab bilan hamkorlikda ishlash zarurligi; - Farzandlarining xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatuvchi omillar haqida ma'lumotga ega bo'lishlari zarur
- Farzandlarining bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishga ko'maklashishi; - Oilaviy ma'naviy tadbirlarda ishtirok etishni yo'lga qo'yish; - Uydagu kutubxona fondini doimiy ravishda boyitib borishlari zarur. Xalqimiz o'tmishini yuksak baholagan holda, Birinchi Prezidentimiz shunday degan edi. "Xalqimizning ma'naviy poydevori- bo'lajak jamiyatimiz tayanchlari juda qadimiy va mustahkam. Buni hech kim inkor eta olmaydi. Xalqimizning tayanchi- ajdodlarimiz qoldirgan ma'naviy merosning o'zi katta xazinadir. Bu xazinadan esa oqilona foydalanishimiz lozim. Yer yuzidagi jamiki teran ko'zli insonlar Xilson Mandela nomini yaxshi biladilar. Ozodlik va erkning bu betakror kurashchisiga nimalar va'da qilinmadi deysiz. Boylik, umr bo'yi ertaklardagidek shohona hayot, hamma-hammasi. Undan esa faqat bir narsani istiqlol yo'lidagi g'oyalardan voz kechishni so'raydilar. Ammo Mandela erkinlikni bu foniy dunyoning o'tkinchi lazzatlariga almashtirmadi. Natijada esa u umrining 27 yilini qamoqxonada o'tkazishga majbur bo'ldi. Bugun butun dunyo undagi cheksiz yuksak ma'naviy kamolot tuyg'usini tan oldi. Mandelaga esa xalqaro Nobel mukofoti berildi. Zero, bunday buyuk insonlar bilan yonma-yon yashamoqdamiz. Insonga har qanday vaziyatda boylik, tanish-bilish kerak bo'lmaydi, ma'naviyatli bo'lsa kifoya. Ma'naviyat ularning qo'llaridagi mohir va mukammal quroldir. Bugun biz XXI asr texnika, texnologiyalar davrida yashar ekanmiz mamlakatimizda so'zsiz



jamiyatdagi har bir insonni o'zligini qay darajada anglab yetishiga bog'liqdir. Demak, insonlarning o'zligini anglash ta'minlash ma'naviyat sohasidagi siyosatning asosiy maqsadlaridan biridir

Xulosa. Ta'limni insonparvarlashtirish tadbirlari talaba-o'quvchilarning o'z ixtisosliklari bo'yicha bilimlari orqali ham, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy hamda gumanitar fanlar orqali, umuman, madaniy, ma'naviy-axloqiy me'yorlar hamda qadriyatlarini o'zlashtirish orqali shakllangan ko'nikma va malakalarida samimiylilik, haqgo'ylik, odamgarchilik, imone'tiqod kabi sof insoniy sifat va fazilatlarining ustun bo'lishini ta'minlashga, bo'lajak mutaxassisning o'z kasb-hunari bo'yicha faoliyatida el-yurtning sihat-salomatligi, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy rivoji to'g'risida, mamlakatning tinchligi va osoyishtaligi, ekologik jihatdan tozaligi, obodonchiligi, vatanning taqdiri va kelajagi haqida g'amxo'rlik qilishga o'rganishi va o'zining bular uchun ham mas'ul ekanligini chuqur his etishini tarbiyalashga qaratilganidir. Hozirgi kun fan, madaniyat va ta'lim sohalarida ham katta o'zgarishlar amalga oshirilmoqda, islohotlarning sur'atlari tobora jadallashmoqda. Biroq axborotlar asri talablariga muvofiq o'zgarayotgan hayotimiz ehtiyojlari jamiyat oldiga yangidan-yangi vazifalarni ko'ndalang qilib qo'ymoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" 2008-yil.
2. M.Isxoqov, Q.Sodiqov. "Kitob-ma'naviyat ko'zgusi". 1996-yil
3. M.Inomova. Oilada bolalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi. T., 1999 y.
4. Xasanboyev, X.Toraqulov, I.Alqarov, N.Usmanov. "Pedagogika". "Fan va texnologiya" . 2010 y.
5. R.Mavlonova, O.To'rayeva., K.Xoliqberdiyev. Pedagogika. O'qituvchi. 2008y.
6. Rasulova, D. (2020). QIZLARNI SOG'LOM TURMUSH TARZI ASOSIDA TARBIYALASHNING AHAMIYATI. Архив Научных Публикаций JSPI.



7. Uktamovich, R. B., & Rakhmatullaevna, R. D. (2019). FEATURES OF STUDYING THE LEVEL OF PSYCHOLOGICAL READINESS OF A SEVENYEAR-OLD CHILD'S ADAPTATION TO SCHOOL. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 7(12).

8.Rasulova, D. (2020). YOSH OTA-ONALARNING PEDAGOGIKPSIXOLOGIK BILIMLARINI OSHIRISHNING AHAMIYATI. Архив Научных Публикаций JSPI.